

# Siz — Fargʻona markazidasiz

TOP-20

Nimalar qilish mumkin?


- Shaharning inqilobgacha boʻlgan meʼmoriy inshootlari bilan tanishish
- Fargʻona viloyati tarix va madaniyat davlat muzeyiga kirib, amaliy bezak sanʼati namunalari bilan tanishish
- Fayzli markaziy bogʻ boʻylab sayr qilish hamda undagi mashhur matematik va astronom — Al-Fargʻoniy haykalini topish
- Shahar bosh jome masjidi — Juma masjidini koʻzdan kechirish
- Islom Karimov nomidagi teatr-konsert saroyida konsert tomosha qilish
- Fargʻona viloyati rus drama teatrida sahna asarini tomosha qilish
- Mahalliy taomlarni tatib koʻrish va markaziy bozordan esdalik sovgʻalar xarid qilish

## Qoʻqonda bajariladigan TOP ishlar

- Xudoyorxon saroyining naqshinkor meʼmorchiligidan bahramand boʻlish va uning huzuridagi shahar oʻlkashunoslik muzeyiga kirish
- Xonlar va zodagonlar dafn etilgan Madarixon va Daxmayi Shohon maqbaralarini tomosha qilish
- Jome masjididagi barcha oʻymakor ustunlarni sanab chiqish
- Rossiya-Osiyo banki binosi, Vadyayevlar uyi, Simxayevlar uyi va boshqa binolar misolida «Qoʻqon moderni» nima ekanini oʻrganish
- Qoʻqoncha nonushtani tatib koʻrish: qaymoq, garmashoʻrak (noʻxatshoʻrak), kallagoʻsht, issiq patir va choy bilan
- «Mehrigiyo» kompaniyasiga qarashli lavanda, banan va papayya plantatsiyalarini tomosha qilish

## Fargʻona vodiysida bajariladigan TOP ishlar

- Margʻilondagi «Yodgorlik» fabrikasida qadimiy texnologiyalar asosida ipak mato ishlab chiqarilishini koʻrish
- «Markaziy Osiyo bosh kulolchilik markazi» — Rishtonda joylashgan 100 dan ortiq kulol ustaxonalariga borish
- Shohimardon qishlogʻida va Qurbonkoʻl boʻyida shahar shovqinidan uzoqda dam olish
- Yoz va kuz oylarida Fargʻona vodiysida mashhur boʻlgan mevali bogʻlarda sayr qilish va yangi uzilgan meva-chevalardan tatib koʻrish
- Chimyon togʻ yonbagʻrida joylashgan Markaziy Osiyodagi eng yirik balneoklimatik kurortda sogʻlomlashtiruvchi muolajalarni qabul qilish
- Shoir va sarkarda Bobur vatani boʻlmish Andijon shahriga sayohat uyushtirish
- Yunusali ota Gʻoziyevning Milliy uyida mehmon boʻlish va dorbozlar tomoshasini koʻrish



## Nimalarni olib kelish mumkin?

- Mahalliy meva va rezavorlar
- «Yodgorlik» fabrikasidan ipak mahsulotlari
- Rishton kulolchilik buyumlari
- «Mehrigiyo» kompaniyasining ekologik toza mahsulotlari — yogʻlar, choylar, dorivor oʻsimliklar va kosmetika vositalari
- «Avvali» yoki «Totil halva» doʻkonlaridan qoʻqoncha holva



## Nimalarni tatib koʻrish kerak?

- Fargʻonacha palov
- Devzira guruchidan pista qoʻshib tayyorlangan qoʻqoncha palov
- Parmuda somsasi
- Naqshinkor patirlar
- Qoʻqoncha nonushta

